

## HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY DEFORMATSIYALARNI OLDINI OLIISHNING TEXNOLOGIYALARI

*Zulunov Muhammadzar Zokirjon o'g'li*  
*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi*  
*universiteti magistri.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, harbiy xizmatchilarda kasbiy deformatsiyalarni oldini olishning texnologiyalari, yuqori jangovar shaylik, barqaror axloqiy-ruhiy holat hamda shaxsiy tarkibning g'alabaga bo'lgan mustahkam ishonchini ta'minlash bo'yicha taklif va xulosalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Harbiy xizmatchilar, deformatsiya, to'qnashuv, intizom, harbiy xizmat, texnologiya, pedagogika-psixologiya, burch, sadoqat, jasorat, jangovar ruh.

## ТЕХНОЛОГИИ ПРОФИЛАКТИКИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ДЕФОРМАЦИЙ У ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

**Абстрактный.** В данной статье рассмотрены технологии профилактики профессиональных деформаций у военнослужащих, высокой боевой готовности, освещены предложения и выводы по обеспечению устойчивого морально-духовного состояния и твердой уверенности личного состава в победе.

**Ключевые слова.** Военнослужащие, деформация, конфликт, дисциплина, военная служба, техника, педагогика-психология, долг, верность, мужество, боевой дух.

## TECHNOLOGIES OF PROFESSIONAL DEFORMATION PREVENTION IN MILITARY SERVANTS

**Abstract.** In this article, technologies for preventing occupational deformities in military personnel, high combat readiness, proposals and conclusions on ensuring a stable moral and spiritual state and strong confidence of the personnel in victory are highlighted.

**Keywords.** Military personnel, deformation, conflict, discipline, military service, technology, pedagogy-psychology, duty, loyalty, courage, fighting spirit.


Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining bugungi axborot makonida mavjud tahdidlardan himoya qilish, ularda yot va zararli g'oyalarga qarshi barqaror immunitetni shakllantirish maqsadida, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda

amaliy ishlarimiz samaradorligini oshirishimiz zarur.

Vatanimiz tinchligi va osoyishtaligi, jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda yetuk malakali mutaxassis, harbiy xizmatchi va xodimlarga bog'liq ekan, ularning jismoniy jangovar va ruhiy tayyorgarligi doimo dolzarb vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari doimiy ravishda jangovar va ekstremal sharoitlarga jamoat xavfsizligini ta'minlashga har jihatdan tayyor turish yoki, oilaviy ijtimoiy va xizmat jamoasidagi muammoli, ziddiyatli holatlar, ulardagi psixo-emotsional zo'rigish (stress), depressiya va nevroitik buzilish holatini vujudga kelishiga ta'sir etmoqda, Ayrim sabablarga ko'ra harbiy xizmatchilarning to'g'ri dam olishlari psixologik va psixofiziologik zaxira to'play olishning imkoni mavjud emasligi, ularning ruhiy bargaror ishlashiga hamda turlicha ruhiy o'zgarishlarning kelib chiqishiga va kasbiy deformatsiyalarga sabab bo'lishi mumkin.

**Kasbiy deformatsiya** (kasbiy faoliyatning odamga salbiy ta'sir ko'rsatishi)- bu kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan va uning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan o'zgarishlar tizimidir. Shaxsning kasbiy va shaxsiy xatti -xarakatlarida nomaqbul fazilatlarining paydo bo'lishidir.



“Quyi pog‘onalardagi bo‘linmalarining axborot-psixologik ta’sirlarga bardosh bera olish qobiliyatini oshirishga qaratilgan tayyorgarlik ishlarini doimiy yo‘lga qo‘yish zarur”<sup>1</sup>. Hech shubhasizki, Milliy gvardiya bo‘linmalariga ushbu vazifalarni amalga oshirishda, bugungi kunda har tomonlama yetuk harbiy xizmatchilarni tarbiyalash dolzarb vazifalardan biriga aylanib kelmoqda.<sup>1</sup>

Darhaqiqat, harbiy xizmatchilar uchun psixologik bilimlarni o‘rganilishi harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi nafaqat tashqi olamda ro‘y berayotgan ob‘yektiv hodisalar mohiyatiga aloqador bilimlarga ega bo‘lish, balki o‘z ichki imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalangan holda, harbiy xizmat faoliyatini oqilona tashkil etishning barcha sirlaridan boxabar bo‘lish, o‘ziga va o‘zgalarga ta’sir etishning usul va vositalarini bilish hamda ulardan foydalanishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilariga talablarning tizimli qo‘yilishi, faoliyatlarida nizoli va ziddiyatli vaziyatlarning mavjudligi albatta ularning ruhiyatiga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Harbiy xizmatchilarning kundalik va ekstremal vaziyatlarda qaror qabul qilishi va o‘zini idora qilishi, tobora shiddatli tus olayotgan axborot xurujining ko‘pligi, ijtimoiy muammolar hamda harbiy xizmat yuklamasining ko‘payishi natijasida ruhiy zo‘riqish holatlari natijasida kasbiy deformatsiya holatlari ko‘payib bormoqda.

#### **TADQIQOTNING VAZIFALARI QUYIDAGICHA BELGILANADI:**

1. Kasbiy deformatsiya tushunchasining psixologik xususiyatlari va mohiyatini aniqlashtirish;
2. Harbiy xizmatchilarda kasbiy deformatsiya shakllanishida (kasbiy, shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy-psixologik) ta’sir etuvchi omillarning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish;
3. Harbiy xizmatchilarning kasbiy deformatsiyasi shakllanishida salbiy ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashtirish;
4. Harbiy xizmatchilarning ruhiy buzilishi, kasbiy qoniqqanlik darajasiga bog‘ligligini aniqlash va ruhiy salomatligiga ta’sirini tadqiq etish;
5. Ruhiy buzilishga ta’sir etuvchi o‘ziga xos individual-psixologik xususiyatlarni aniqlash;
6. Harbiy xizmatchilarning kasbiy deformatsiyalariga ta’sir etuvchi kognitiv-emotsional xususiyatlari hamda harbiy xizmatning shart-sharoit, omillari va munosabatlarda namoyon bo‘lishini tadqiq etish;
7. Harbiy xizmatchilarning kasbiy deformatsiyalarini o‘rganishga mo‘ljallangan metodikalarni (moslashtirish) ishlab chiqish;
8. Kasbiy deformatsiyalarini oldini olishda ilg‘or xorij tajribasidan foydalanish va amaliyotga tadbiq qilish.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-yanvar “Vatan himoyachilari” kuni va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 31 yilligi munosabati bilan, Vatan himoyachilarga bayram tabrigi

9. Harbiy xizmatchilarning kasbiy deformatsiyalarini oldini olishda zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan ishlay olishini ommalashtirish;

10. Harbiy xizmatchilarning kasbiy deformatsiyalarini oldini olish bo'yicha ijtimoiy-psixologik va ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

#### **TADQIQOT NATIJALARI BO'YICHA XULOSA VA TAVSIYALAR:**

1. Xizmat faoliyatini olib borayotgan mutaxassis psixologlar uchun ilmiy-amaliy qo'llanmalar va metodik dasturlarni boyitish;

2. Tegishli buyruqlar bilan ta'sis etilgan ruhiy yengillik xonalarini yanada zamonaviy tarzda barpo etish va munosib jixozlash bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash;

3. Tizimdagi mavjud psixolog mutaxassis lavozimlariga psixolog mutaxassisligiga ega bo'lgan nomzodlar bilan butlanishi;

4. Psixologlar assotsiatsiyasi, Sog'liqni saqlash vazirligi psixiatrlari va Oliy ta'lim muassasasi mutaxassis-psixologlari bilan hamkorlikda shaxsiy tarkib bilan psixoprofilaktik tadbirlarni tashkillashtirish yoki memorandum imzolash;

5. Psixologik reabilitatsiya ishlarni jadal rivojlantirish maqsadida, jamoatchilik vakillari bilan hamkorlik o'rnatish;

6. Harbiy jamoalardagi ma'naviy ahloqiy-ruhiy muhit bargarorligini ta'minlash, psixotravmatik ta'sirlarning oldini olish.

7. Barcha toifadagi rahbarlar tomonidan qo'l ostidagi harbiy xizmatchilarga nisbatan jismoniy va ruhiy yuklamalarni teng va adolatli taqsimlanishini nazorat qilish;

8. Jismoniy va ruhiy zo'ravonlikka moyil bo'lgan harbiy xizmatchilarni shaxsiy tarkib bilan bog'liq bo'lmagan vazifalarga tayinlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq;

9. Kasbiy deformatsiya holatlari va diagnostikasi bo'yicha ilmiy asoslangan samaradorlikka ega bo'lgan metodikalar ishlab chiqish;

10. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi "Harbiy psixologi" ko'krak belgisini ta'sis etilishi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Безнесов С.Р. Профессиональная деформация. Санкт-Петербург: 2004.
2. Маркова А.К. "Психология профессионализма"/ М.: Международный гуманитарный фонд "Знание" 1996. 312 с.
4. [www.expert.psychology.ru](http://www.expert.psychology.ru).